

SKARLATINA

Sopoyeva Muyassar Bekbergan qizi
Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi

Annatsiya: *Butun dunyoda skarlatina infeksiyasi mavsumiy tez-tez yosh bolalarda dunyo miqyosida har yili 40 mln.ga yaqin bolalar kasallanadi, ular orasida 10% ortiq vaziyatlarda o'lim holatlari kuzatiladi. 30 yildan beri qizamiqqa qarshi vaksinatsiya-profilaktika o'tkazilishiga qaramasdan, qizamiqni og'ir shakillari ko'payib bormoqda, dolzarbligi katta yoshdagi yondosh kasalligi bo'lgan bemorlarda og'ir holatlarga olib bormoqda. Yana e'tibor qaratish kerakki, qizamiq epidemiyasi har 2-4 yilda katta shaharlarni qamrab oladi. Natijada, hali bu kasalikka chalinmagan bolalar uni yuqtirib oladi. Gruziyada shu yilning boshlaridan e'tiboran qizamiq kasalligiga chalinganlar soni 1370 kishiga oshgan. Hozirgi kunda skarlatina infeksiyasining epidimologiyasi, patogenezi, klinikasi, laboratoriya tashxisi borasida dunyo olimlari, yetakchi mutaxassislar va tajribali shifokorlar tomonidan izchil o'rganishlar olib borilgan.*

Tayanch so'zlar: *Skarlatina-qizamiq, qizamiq, virus, nafas yo'llari, havo-tomchi, ikkilamchi virusemiya, qizamiq virusi, limfositlar tizim, patogenezi.*

Skarlatina infeksiyasi:

Qizamiq - havo tomchi yo'li orqali yuqadigan o'tkir yuqumli kasallik bo'lib, umumiy toksikoz, tana haroratining ko'tarilishi, konyuktivit, nafas yo'llari yallig'lanishi va terida o'ziga xos bosqichma-bosqich, dog'li-papulyoz toshmalar toshishi bilan xarakterlanadi.

Statistika ma'lumotlariga qaraganda Jazoyirda qizamiq kasalligi keng tarqalib bormoqda. Taxminan 2 oy oldin boshlangan kasallik jami 13 shaharda tarqaldi. Bu haqda Jazoyir sog'liqni saqlash vazirligi mulozimi jamol Furar ma'lum qildi. Uning ta'kidlashicha, qizamiq kasalligi 13 shaharda tarqalgan bo'lib, yakshanba kundan e'tiboran yana 2317 kishida kasallik alomatlari kuzatilgan. Taxminan 2oy oldin tarqalgan Al-Vadi shahrida 1047, Vurgile shahrida 797 kishi qizamiq kasalligiga chalingan.

Jazoyir matbuotida berilgan xabarlarga ko'ra, hozirda mamlakatda 12 kishi qizamiq kasalligiga chalinganligi tufayli nobud bo'lgan.

Jazoyir sog'liqni saqlash vazirligi qizamiq kasalligining sabablarini tekshirish uchun 5mart kuni o'z faoliyatlarini boshlagan edi.

“Qizamiqqa chalinish 2019-yilda dunyo miqyosida keskin o'sib, 23 yil ichida qayd etilgan eng yuqori ko'rsatkichga aylanadi” deyiladi xabarda.

Unga ko'ra, o'tgan yili 869,770 kishida ushbu kasallik qayd etilgan. Shundan 207,5 ming nafar bemor hayotdan ko'z yumgan. Natijada 2016-yillari o'lim ko'rsatkichi 50%ga oshgan.

Chop etilgan hisobotga ko'ra, 2010-yildan 2016-yilgacha ushbu xastalikka chalinish ko'rsatkichi pasayib, 2016-yilda "tarxiy jihatdan eng past" natija qayd etilgan.

Mutaxasislarning izohlanishicha, vaziyatning keskin o'sishi qizamiqqa qarshi emlash dasturlaridagi uzilishlar bilan bog'liq. Ta'kidlanishicha, qizamiqni nazorat ostiga olish uchun kamida 95 foiz aholi emlanishi kerak. Ushbu jarayonda vaksinaning ikki dozasini olishni ko'zda tutadi. Tahlilga ko'ra, hozir bu maqsadga zid ravishda bolalarning 85 foizdan ko'p bo'lmagan qismi vaksinaning birinchi dozasini va taxminan 71 foizi ikki dozasini olmoqda.

Qayd etilishicha, 2020-yilda tasdiqlangan qizamiq xastaligi holatlari soni kamaygan. Biroq JSST va CDC koronavirus pandemiyasi sababli unga qarshi emlashning uzilishidan xavotirda. Xususan, noyabr oyi holatiga ko'ra, 26 mamlakatda 94 million kishini immunizatsiya qilish muddati kechikmoqda.

Qizamiq kasalligining belgilari va xususiyatlari

Qizamiq - havo-tomchi yo'li orqali yuqadigan o'tkir yuqumli kasallik bo'lib umumiy toksikoz, tana haroratining ko'tarilishi, konyuktivit, nafas yo'llari yallig'lanishi va terida o'ziga xos bosqichma-bosqich, dog'li-papulyoz toshmalar toshishi bilan xarakterlanadi.

Qizamiq virusi - Polyinosa morbiliarom-katta miksoviruslar oilasiga mansub, virus genomi bir zanjirli RNKdan iborat, murakkab antigenli strukturaga ega, infeksiya, komplement, bog'lov Antigeni mustahkam. Organizmda antigenga qarshi maxsus antitelolar (immunitet) ishlab chiqariladi.

- Qo'zg'atuvchi tashqi muhitni barcha ta'sirotlariga chidamsiz, ultrabinafsha va tik quyosh nurlariga o'ta sezuvchan.

- Antibiotiklarni barchasiga chidamli.

- Virus limfoid, retikuloendotelial to'qimalarni, nafas yo'llari epiteliya hujayralari va nerv to'qimalarni zararlaydi.

- Patogenezi

- Patogenezi 5 fazadan iborat hisoblanadi.

Zararlanish fazasi. Yuqori nafas yo'llari shilliq qavati va ko'z shilliq pardasi viruslar uchun kirish darvozasi hisoblanadi.

Birlamchi virusemiya fazasi. Limfositlar tizimni umumiy zararlanishi. Burun, halqum shilliq qavati orqali virus qonga o'tadi va uni kasallikning yashirin davrini birinchi kunlarida aniqlashimiz mumkin. Virusning hamma a'zolar va tizimlarga tarqalishi, limfa va retikuloendotelial to'qimalarga kirishi, u yerda ko'payib, gigant ko'p yadrolik hujayralar hosil qilishi, T,-B-, limfositlar va plazmatik hujayralar ko'payishi va spetsifik qizamiqqa qarshi himoya tanachalari hosil bo'lishi kuzatiladi.

Ikkilamchi virusemiya va allergik reaksiyalar fazasi. Qonda virusning maksimal darajada ko'payishi kataral davrning oxiri va toshma toshish davrning birinchi kunlarida kuzatiladi. Bu kunlarda virus ko'p miqdorda yuqori nafas yo'llarida saqlanadi. Toshma toshish davrining uchinchi kundan boshlab virusning qonga

ajralishi kamayadi. Beshinchi kuniga kelib to'xtaydi. Bu vaqtda qonda virusni neytrallaydigan antitelalar paydo bo'ladi.

Paralel ravishda organizmda virusning oqsil komponenti, gistamin va gistaminsimon moddalar ta'siri hisobiga allergik jarayonlar rivojlanadi, bu to'qimalarning sensibilizatsiyasiga olib keladi. Bunda qon tomir devorlarining shikastlanishi, ularning o'tkazuvchanligining oshishi, shish va eksudatsiya hosil bo'ladi:

Qizamiq yuqish darajasi yuqori bo'lgan va og'ir kechadigan virusli kasallik bo'lib, dunyoda chaqaloqlar o'limining eng ko'p tarqalgan sabablardan biri-deydi. Respublika sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati mas'ul xodimi Dilorom Tursunova.

Xastalikni yashirin davri 6-18 kuni tashkil etadi. U harorat ko'tarilishi, tananing barcha joyida toshma, shilliq qavatlarining yallig'lanishi kabi asosiy belgilar bilan namoyon bo'ladi. Bolada holsizlik, ko'z qizarib yoshlanishi kuzatilib, injiqlanadi. Shuningdek, ishtahasizlik, tez-tez ich ketishi, katta yoshli bolalarda esa bosh og'rig'i, qusish, burun qonashi, qorin og'rig'i kuztilishi mumkin.

Qizamiq kasallangan odamning yo'talishi, aksa urishi orqali havo tomchi yo'li bilan yuqadi! U odamlar gavjum joylarda (bolalar bog'chalari, maktablar, tibbiyot muassasalari) tez tarqaladi. Kasallik virus havoda va atrof muhitda 2 soatgacha yuquvchanligi saqlanib qoladi.

Xastalik 2 yoshgacha bo'lgan, shuningdek, yosh nimjon bolalar uchun ayniqsa, xavfli. Eng yomoni, jajji bemorlarning har uch nafaridan birida shapko'rlik, ensefalit, kuchli diariya (ich ketish), shu bilan bilan bog'liq tananing suvsizlanishi, otitlar va zotiljam kabi salbiy asoratlar yuzaga keladi.

Afsuski, qizamiq virusning o'zi keltirib chiqargan yoki ikkilamchi bakteriya tufayli paydo bo'lgan zotiljam kasalligi eng ko'p kuzatiladigan asorat hisoblanib, ko'pincha xastalikning o'lim bilan tugashiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois mutaxassislar uning oldini olishga eng samarali usul sifatida emlanishni tavsiya etadi.

Davolash va oldini olish profilaktika ishlari:

- qizamiq bilan og'irgan bemorlarni qorong'i xonada tinch yotishlari (konyuktivitda o'tkir yorug'lik kuchli og'riq beradi) zarur:

- og'iz choy sodasining eritmasi bilan chayqab turiladi:

- asoratlarini oldini olish uchun ko'zlarga sulfasil va boshqa antibakterial tomchilar tomizilib turiladi:

- pnevmaniya yoki boshqa bakterial asoratlar rivojlangan taqdirda antibiotiklar qabul qilish zarur bo'ladi.

Qizamiqni oldini olish profilaktika ishlari:

Qizamiq bo'yicha dunyodagi epidemiologik vaziyat ham murakkab, shuni e'tiborga olib, kasallik yurtdoshlarimiz o'rtasida keng tarqalishining oldini olish maqsadida mamlakatimizda 6 oylikdan qizamiqqa qarshi vaksinalarning samaradorligi juda yuqori. Kasallikka qarshi vaksinlarning 2-martalik emlanish

ko'rsatkichi 90-95 foizni tashkil etadi. Vaksinatsiya jarayonida qizamiq komponentlarini saqlovchi yoki qizamiq va qizilcha komponentlari birlashtirilgan hamda qizamiq, qizilcha va tepki komponentlari birlashtirilgan vaksinlardan hozirda keng qo'llanilmoqda yurtimizda milliy emlash kalendariga asosan ushbu vaksina bilan 6 oylikdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar emlanadi. Eng muhimi, O'zbekistonda qo'llaniladigan tasdiqlangan barcha vaksinalar samarali va xavfsizdir.

Ma'lumot uchun, 1963 yilda qizamiq vaksinasi ishlab chiqilgach, bu kasallik bilan og'rikan va vafot etganlar soni yuz martaga kamaygan.

Bundan tashqari kasallikning oldini olish uchun katta dozadalarda A vitamin (retinol)dan foydalanish mumkin. Faqat shifokor nazoratida ostida qabul qilish tavsiya etiladi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. CDC tashkiloti tomonidan olingan jadval natijalar asosida: 2016.
2. (<https://www.criptolog.com/coin/commerce-data-connection/>).